

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 6

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 6-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-6

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-6>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Психология фанлари

KARAKULOVA Umida Abduvakilovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Jizzax filiali
 “Oila psixologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8026640>

BOLA XULQ - ATVORI SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUHIT

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada deviant xulq - atvor va uning shakllanishi, oilaviy shaxslararo munosabatlarning o‘smirlarga ta’siri haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, nafratlanish, o‘z ishidan qoniqmalik, dushmanlik, jizzakilik, gijohvandlik, ota-ona, oilaviy tarbiya.

КАРАКУЛОВА Умида Абдувакиловна
Национальный университет Узбекистана, Джизакский филиал
 Преподаватель кафедры "семейная психология"

СЕМЕЙНАЯ СРЕДА В ФОРМИРОВАНИИ ПОВЕДЕНИЯ РЕБЕНКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены представления о девиантном поведении и его формировании, влияния семейных межличностных отношений на подростков.

Ключевые слова: девиантное поведение, ненависть, неудовлетворенность своей работой, неприязнь, ревность, наркомания, родители, семейное воспитание.

KARAKULOVA Umida Abduvakilovna
National University of Uzbekistan, Jizzakh branch
 Teacher of the Department "Family Psychology"

FAMILY ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF CHILD BEHAVIOR

ANNOTATION

This article presents ideas about deviant behavior and their formation, the influence of family interpersonal relations on teenagers.

Key words: deviant behavior, hatred, dissatisfaction with one’s work, hostility, jealousy, drug addiction, parents, family education.

Bola tarbiyasida, ijtimoiy meʼyorlar talabi asosida tarbiyalashning eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. “Yoshlarimiz tarbiyasi qanchalik mukammal boʻlsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” [1].

Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson boʻlib shakllanishida nikohli sogʻlom oila muhitining oʻrni benihoya katta va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson boʻlib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga, bevosita bogʻliqdir. Insondagi xulq-atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, maktab, mahallada, jamoatchilik oʻrtasida taʼlim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, insoniy fazilatlarini shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha koʻtarilib boradi, agar aksi namoyon boʻlsa buzgʻunchi, tajaovuzkor shaxsga aylanib qoladi [2].

Har bir oilalarni muayyan tarbiyalash usullarining oʻziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida oʻrin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga taʼsir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom, oʻzaro muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan deviant va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari oʻrganilganda, ota-onaning kayfiyatiga koʻra, koʻp hollarda qattiqqoʻllik, jazolash, ota-onalik mehrining "tanqis"ligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan [3].

Deviant xulqli va ijobiy xulqli oʻquvchilarning oila sharoiti oʻrganilganda, deviantlilarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Xulq ogʻishini kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bagʻishlangan tadqiqotlarning tahlili koʻrsatishicha, ikki oʻzaro bogʻliq omil orasidagi;

- funksional yoki xulq-atvoriga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir qiluvchi shaxslararo jarayonlar

- bevosita taʼsir qiluvchi, oʻzida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jarayonlarga ajratish mumkin.

Zero, yildan-yilga oʻsmirlar xulq-atvoridagi buzilishlar - ularning intellektual, xissiy, irodaviy rivojlanishda ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda. Hozirgi davrda oʻsmirlikka xos deviant xulqining shakllanishida oilaning taʼsirini oʻrganishga eʼtibor ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bagʻishlangan tadqiqotlarning oʻrni salmoqlikdir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi «qiyin» oʻsmirlarning shakllanishida oilaviy muhitning qay darajada oʻrin egallashi va oiladagi nizolarning taʼsirini oʻrganish dolzarbligi oshib bormoqda.

A.Davletshin, Gʻ.Shoumarov, V.Karimova, M.Fayziyeva va boshqalarning oʻzbek oilalaridagi oʻziga xoslik, undagi nizolar, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning oqibatlarini har tomonlama oʻrganib tahlil qilganlar. F.Roʻziqulov tadqiqotlarida otasiz yigitlarning va ona tarbiyasida boʻlmagan qizlarning nikohida oʻz turmush oʻrtogʻiga hurmatini yetarli ravishda ifodalay olmasligi sabablari tadqiq qilingan

L.S.Vigotskiy fikricha, “Oʻgʻishgan xulq” oʻsmirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yigʻindisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar. Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularda maʼlum bir xususiyat intizomsiz, qoʻpol boʻladilar. Ularning faolligini maqsadga muvofiq oʻzgartirish, ularga baʼzi bir huquqlarni berish bilan ularga tasir oʻtkazish mumkin [4].

Psixologiyada xulqi ogʻishgan oʻquvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud;


1- guruh ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar,

2-guruh qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar,

3-guruh ijobiy va salbiy xulq atvor steriotiplari oʻrtasida ikkilanuvchi, oʻz holatlarini tushunuvchi bolalardir,

4-guruh irodali bolalarga boʻysinuvchilar,

5- guruh qonunbuzarlik yoʻliga tasodifan kirib qolganlar.



1. rasm Tadqiqot sinalluvchilarining jins bo'yicha tafovutlari.

Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati test-so'rovnomasi guruhiy tahlili

Shkalalar nomi	Oila turi	N	O'rtacha rank	Ranklar summasi	U	p
Bolani qabul qilishni rad etish	nizoli oila	37	34,07	1260,50	557,500	0,000
	nizosiz oila	61	58,86	3590,50		
Bola qiziqishiga munosabat	nizoli oila	37	33,61	1243,50	540,500	0,000
	nizosiz oila	61	59,14	3607,50		
Psixologik yaqinlik	nizoli oila	37	42,89	1587,00	884,000	0,064
	nizosiz oila	61	53,51	3264,00		
Nazorat	nizoli oila	37	44,97	1664,00	961,000	0,194
	nizosiz oila	61	52,25	3187,00		
Bola omadsiz ligiga m-t	nizoli oila	37	41,36	1530,50	827,500	0,018
	nizosiz oila	61	54,43	3320,50		

Sinalluvchilardan olingan mazkur metodika natijasiga ko'ra nizoli va nizosiz oilada Bolani qabul qilishni rad etish ko'rsatkichi bo'yicha tafovutlar aniqlandi: (U=557,500; p<0,000) Nizoli va nizosiz oilalarda bolani qabul qilish, bolaga munosabat va e'tibor turlicha bo'ladi [5].

Oiladagi yuzaga kelgan o'zaro nafrat ham oiladagi bolalarni inkor qiladi. Kattalar bolaga nisbatan faqat salbiy his-tuyg'ularni, g'azab, asabiy, achinish xissi bilan qaraydi. Bunda ota-ona bolani omadsiz deb hisoblaydilar. Uning kelajagiga ishonmaydilar, qobiliyatlarini past baholaydilar. Bunday moyillikka ega bo'lgan ota-ona oilada bolaga yaxshi tarbiyachi bo'la olmaydilar. Nizosiz oilada esa bolaga nisbatan yorqin namoyon bo'luvchi ijobiy munosabat mavjud. Bunday oilalarda ota-ona bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi, uning individualligini tan oladi va hurmat qiladi, uning qiziqishlarini rejalarini qo'llab-quvvatlaydi, bola bilan ko'p vaqtni o'tkazadi va bu haqida afsus chekmaydi. Sinalluvchilardan olingan mazkur metodika natijasiga ko'ra nizoli va nizosiz oilada Bola qiziqishiga munosabat ko'rsatkichi bo'yicha tafovutlar aniqlandi: (U=540, 500; p <0,000) Nizosiz oilalarda ota-ona bolani qiziqtiradigan faoliyatga katta qiziqish bilan munosabatda bo'ladi, bola qobiliyatlarini yuqori baholaydi, bolaning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantiradi, bola bilan tanglik munosabatlarida birga bo'ladi [6].

Nizoli oilalarda esa bola bilan munosabatda o‘zlarini ularga qarma-qarshi qo‘yishadi, bolalar qiziqishi inobatga olinmaydi. Ota - onalar ko‘proq avtoretar tarbiya usulini tanlaydilar. Ba‘zan esa umuman farzand bilan qiziqmaydi, uning kelajagi, orzulari va intilishlariga quloq solmaydi. Bu esa farzandda umidsizlik va kelajagi haqida ishonchsizlik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. Farzanddagi bor ishtiyoq va qiziqishlar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotqdi. Ko‘pgina hollarda esa tarbiyadagi og‘ishishlar va deviatziyalalar yuzaga keladi.

Sinaluvchilardan olingan mazkur metodika natijasiga ko‘ra nizoli va nizosiz oilada bolaning omadsizligiga munosabat ko‘rsatkichlarida ham sezilarli tafovutlar aniqlandi: ($U=827,500$; $p < 0,018$) Ba‘zan nizoli oilalarda ota-ona bolani “omadsiz” deb hisoblaydi. Ota-ona uchun bolaning qiziqishlari, orzu-havaslar fikr va tuyg‘ulari jiddiy emasdek tuyuladi. Psixologik sog‘lom muhitda ota-ona bolaning omadsizligini tasodifiy deb hisoblaydi, bu esa farzandga ishonishlaridan dalolatdir.

Oila tarbiyaning eng boshlang‘ich o‘chog‘idir. Oiladagi muhit bolalar xulq-atvorida o‘z aksini topadi [10].

Doimiy nizoli vaziyat xukm surgan oilada, psixologik muhit buzuladi va o‘smirga e‘tiborsizlik kuchayadi. Natijada esa o‘smir xulqida og‘ishishlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday vaziyat uzoq muddat davom etadigan bolsa, jiddiy deviatziyalarga olib kelishi mumkin. Nizoli oilada o‘smirlar doim e‘tiborsiz va qarovsiz qoladi, oilaviy muloqotga muhtojlik sezadi, natijada o‘zgaralar panoh izlaydi, boshqa turli mashg‘ulotlar topadi, xatto jinoyatchilikka qo‘l urishi mumkin. Nizosiz oilalarda ulg‘ayayotgan o‘smirlar esa doimiy mehr-muhabbat qurshovida bo‘ladi, bolani tinglaydilar va u bilan suhbatlashishga vaqt ajratiladi.

Yoshlarda deviant xulq va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o‘rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e‘tibor berish lozim [10].

Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida farzandlarga diniy tarbiya berish, e‘tiqodini mustahkam qilish, ularda har qanday xulq og‘ishi ko‘rinishi diniy tarafdin ham, dunyoviy tarafdin ham salbiy oqibatlariga olib kelishini tizimli tushuntirish, mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, o‘zini band qilish va mehnat qilish ko‘nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san‘at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak [13].

Zero, shaxsdagi ichki “men” ning atrof-muhit, jamiyat va yaqinlari tomonidan munosib ravishda rag‘batlantirilmasligi o‘ziga bo‘lgan bahosining tushib ketishiga, “tan olinish” ehtiyojining qondirilmasligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, shaxs tomonidan boshqa yo‘llar bilan “o‘zini namoyon etish” istagini vujudga keltiradi.

Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o‘rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e‘tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevis va sevimli bo‘lishga qobiliyatni rivojlantirish, o‘zini band qilish va mehnat qilish ko‘nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san‘at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Abduvakilovna, K. U., & Xusanovna, R. X. (2022). O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 91-94.
2. Abduvakilovna, K. U., & Baxriddin o‘g‘li, X. J. (2022). O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 87-90.
3. Abduvakilovna, K. U. (2022). OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 95-98.
4. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA’SIRI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
5. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
6. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
7. Umida, K., & Mashxura, Q. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA SUITSIDAL XULQ-ATVOR PAYDO BO‘LISHIDA OILAVIY MUNOSABAT. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 300-303.
8. Umida, K. (2023). OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 304-307.
9. Umida, K., & Gulrux, F. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI OG‘ISHGAN XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO‘LISHI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 296-300.
10. ABDUVAKILOVNA, K. U. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDA BOLALAR DIQQATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ТАРАҚҚИЁТ ТАДҚИҚОТЛАРИ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР ТЎПЛАМИ*.
11. Abduvakilovna, K. U. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 399-402.
12. Abduvakilovna, K. U. (2022). O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 763-767.
13. Karakulova, U., Berdiyorova, S., & Rejepbayeva, A. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA NOMOYON BO‘LADIGAN DEVIANT XULQ-ATVOR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 6-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-6

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-6

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz